

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUV SHAKLI,
TUZILISHI VA SIYOSIY REJIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Avazov Jamshid Ahad o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Avliyoqulov Adham Alisherovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat shakli – konstitutsiyaviy huquq
nazariyasida davlatning oliy organlarini tashkil etish usuli, davlat hokimiyatining
hududiy tuzilishi va bu hokimiyatni amalga oshirish usullari hamda davlat shakli
haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: respublika, aralash respublika, monarxiya, oddiy(unitar) va
murakkab (federativ va konfederativ) tuzilish shakllari, siyosiy rejim, vakillik va
bevosita demokratiya.

Davlat boshqaruv shakli davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining
shakllantirilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning o'zaro hamda aholi bilan
aloqadorligidir. Bu tushuncha orqali mamlakatda kim hukmron va u hokimiyatni
qanday boshqaradi, degan savollarga javob olinadi. Boshqaruv shakliga qarab
davlatlarning monarxiya va respublika shakllari farqlanadi.

Davlat tuzilishi shakli orqali davlatning hududiy tarkibi, markaziy va mahalliy
hokimiyat idoralarining o'zaro munosabati (nisbati) ifodalanadi. Davlat
hokimiyatini mamlakat hududi bo'yicha tashkil qilish, hududlardagi davlat
organlari, markaziy davlat organlari munosabatini (federativ, konfederativ) turlarga
ajratiladi.

Siyosiy (davlat – huquqiy) rejim davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari
(metodlari) va vositalari yig'indisidir. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va
vositalari toifasiga ko'ra demokratik va avtoritar siyosiy rejimlar farqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining

1-moddasi: "*O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan
suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.*

*Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir
ma'noni anglatadi.*" deb qonuniy mustahkamlab qo'yilishi mamlakatimiz
respublika shaklidagi davlat ekanligini anglatadi.

Respublika (lotincha: “respublica” res — ish va publicus — ijtimoiy, umumxalq) — davlat boshqaruv shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo‘yiladi yoki umummilliy vakolatli muassasalar (parlamentar) tomonidan shakllantiriladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladilar.

Respublika — davlat boshqaruvining shunday shakliki, bunda davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo‘yiladigan organlar va davlat boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika boshqaruv shaklining bir necha turlari mavjud, ayrim manbalarda uning ikki turi, ayrim manbalarda uch turi ko‘rsatiladi. Haqiqatdan ham, hozirgi davlatchilik tajribasida respublikaning uch turi: prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika, respublikaning aralash shakli uchrab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi aralash respublika shaklidagi davlat hisoblanadi. Respublikaning aralash shaklida prezident fuqarolar tomonidan saylanadi, hukumatni o’zi shakllantiradi va hukumat unga hisob beradi. Parlament hukumatga ishonchsizlik votumi bildirishi mumkin. Prezident parlamentni tarqatib yuborishi mumkin. Hukumat a’zolari bir vaqtning o’zida parlament a’zolari bo’la olmaydi. Parlament hukumatni nazorat qilish vakolatiga, mexanizmiga ega bo’ladi.

O‘zbekiston Respublikasining aralash respublika hisoblanishing sababi Prezident aholi tomonidan saylanadi, hukumatni tuzishda Prezident va Oliy Majlis ishtirok etadi, hukumat Prezident va Oliy Majlis oldida javobgar hisoblanadi. Hukumat faoliyatini Oliy Majlis nazorat qiladi, Oliy Majlis hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishi mumkin. Prezident Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborishga haqli.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning **11-moddasida** O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyating tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo’linishi prinsipiiga asoslanishi, **91-moddada** esa O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis oliy vakillik organi bo’lib, u qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishi hamda ikki palatadan, ya’ni Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iboratligi mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i hisoblanib, u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasing Hukumati ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta’minlaydi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasing butun hududidagi

barcha organ va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Boshqaruvning **respublika** shakliga xos bo'lgan quyidagi belgilari mavjud;

- davlat boshlig'i va boshqa oliv hokimiyat organlarining muayyan muddatga saylab qo'yilishi;

- davlat boshlig'i va boshqa saylab qo'yilgan organlarning saylovchilar oldida mas'ulligi hamda ularning muayyan muddatga saylanishi va tayinlanishi;

- davlat boshlig'inining qonunda belgilab qo'yilgan holatlarda yuridik jihatdan javobgarligi;

- davlat hokimiyatini davlat boshlig'i nomidan emas, balki xalq nomidan amalga oshirish;

- fuqarolar huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoya qilinishi, davlat va shaxs o'rtasida o'zaro mas'ullikning mavjudligi va boshqalar.

Davlat boshqaruvning yana bir shakli **monarxiya** hisoblanadi. Monarxiya (yunoncha: monarchia – yakka hokimlik yoki monos – yakka, arxe – hokimiyat ma'nolarini anglatadi) – bunda qoida tariqasida, oliv davlat hokimiyati yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Odatda hokimiyat meros orqali o'tadi.

Monarxiya boshqaruvning ko'rinishlari: mutlaq (absolyut), cheklangan, dualistik (aralash) va teokratik.

Monarxiya hokimiyati oliv maqomga ega bo'lib, u mustaqildir. U davlatdagisi oliv hokimiyat sohibidir.

Prezidentning monarxdan farqi u saylagan xalq, organ oldida javobgar bo'ladi. Mamlakatni monarxiya yoki respublika shaklidagi boshqaruv deb hisoblashga eng birinchi va asosiy sabab, davlat boshlig'inining qanday yo'l bilan lavozimga kelishidir. Monarxiya davlatlarida monarx-davlat boshlig'i umrbodga, avloddan-avlodga o'tishi asosida lavozimiga kelsa, resspublika shaklidagi davlatlarda davlat boshlig'i faqat saylov orqali va ma'lum muddatga lavozimni egallaydi. Bundan tashqari boshqa hokimiyat organlarining tashkil etilishi, shakllantirilishi va faoliyati shakllari, hokimiyat tuzilmalarining bir-biri bilan munosabati o'z xususiyatlariga ega. Ya'ni ularga respublika yoki monarxiya ta'sir qiladi.

Davlat tuzilish shakliga ko'ra: oddiy (unitar) va murakkab (federativ va konfederativ) ko'rinishlari mavjud.

Unitar tuzilishdagi davlat yagona bo'lib, u tarkibiy qismlari suverenitet belgilariga ega bo'lmasan ma'muriy-hududiy birliklardan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilish shakliga ko'ra unitar davlat hisoblanadi. Lekin uning tuzilishida ayrim federativ davlatlarga xos xususiyatlar ham mavjud.

Masalan, O'zbekiston tarkibida davlat tuzilishiga xos bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjud. Uning o'z Konstitutsiyasi, qonunlari, hududi, fuqaroligi, oliv qonunchilik, ijro va sud hokimiyati organlari mavjud. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston munosabatlari federativ munosabatlar asosida qurilmagan. Federatsiyada bir nechta teng huquqli subyeklar ittifoq bo'lsa, bu yerda teng huquqli federatsiya huquqlari yo'q. O'zbekiston Kostitutsiyasi, qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida bajarilishi majburiy va Qoraqalpog'iston qonunlari O'zbekiston qonunlari ustunligini tan oladi.

Oddiy (unitar) davlat tuzilishida mamlakat ma'muriy-hududiy qismlarga (viloyat, shtatlar, okruglar, grafliklar, tumanlarga) bo'linib, u yagona oliv organ, yagona boshqaruvin organlari tizimiga, faqat bitta umumdavlat konstitutsiyasiga, yagona fuqarolikka, muayyan yaxlit hudud, davlat chegarasi, yagona armiya, yagona pul birligi va qonunchilik tizimiga ega bo'ladi. Bunda har bir ma'muriy-hududiy birlik davlat tuzilmasi maqomiga ega bo'ladi. Unitar davlatlar (lotincha "unitas" so'zidan olingan bo'lib – "yagona", "bir butun" degan ma'noni anglatadi) oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, u tarkibiy qismlari suverenitet belgilariga ega bo'limgan ma'muriy-hududiy birliklardan iborat bo'ladi. Ular to'la siyosiy birlik ekanligi bilan farqlanib turadi.

Unitar davlatga xos belgilar:

- qonunchilik, ijroya va sud hokimiyati organlari yagona tizimining mavjudligi;
- yagona konstitutsiya, qonunchik, soliq, moliya tizimlarining mavjudligi;
- yagona fuqarolikning joriy etilishi;
- barcha tashkiliy munosabatlar markaziy organlar tomonidan amalga oshirilishi.

Unitar davlatlar tarkibidagi ma'muriy-hududiy bo'linmalar faqat mahalliy masalalarni hal etish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyati mamlakatning butun hududiga o'z ta'sirini, yurisdiksiyasini tanho o'tkazadi.

Federativ davlat (lotincha "feoderare" so'zidan olinib, "ittifoq bilan mustahkamlash" ma'nosini anglatadi) murakkab davlat demakdir. Federativ davlat – teng huquqli respublikalar, shtatlar, kontonlar va boshqa davlat tuzilmalarining ixtiyoriy birlashuvi asosida tashkil topadi.

Konfederatsiya – bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, mudofaa maqsadlari bo'yicha tuzgan ittifoqi.

Siyosiy rejim – bu siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda ishlatiladigan usul, metod va vazifalar yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy rejimi demokratik taraqqiyotning strategik yo'nalişlarini, insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar miqyosida belgilab beradi, xalqaro huquq ustunligini, hokimiyatlar taqsimlanishini, davlatning asosiy organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralarining saylanishi, ko'ppartiyaviylik, mafkuraviy plyuralizmni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy rejimi demokratik siyosiy rejim bo'lib, unga quyidagi belgilar xosdir: demokratizm, respublika boshqaruv shaklining mavjudligi; hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi; siyosiy va mafkuraviy sohada fikrlar xilma-xilligi; o'z o'zini boshqarishning samarali tizimi mavjudligi; davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi; fuqarolik jamiyatni institutining rivojlanganligi va boshqalar

Qisqa xulosa

Yuqoridagilar asosida O'zbekiston Respublikasi boshqaruv shakli bo'yicha respublika, tuzilish shakli bo'yicha unitar, siyosiy rejimiga ko'ra demokratik davlat ekanligi ko'rsatib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotini respublika boshqaruv shaklida ko'rdi va respublika boshqaruv shaklini Konstitutsiyada mustahkamladi.

Bu degani, O'zbekiston davlat boshlig'i Prezident bo'lib, u ma'lum muddatga, respublika fuqarolari tomonidan umumiyligida, to'g'ridan-tog'ri, teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Bu esa demokratiyaning yorqin ko'rinishi hisoblanadi.

O'zbekistonda keyingi vaqtarda erkinlashtirish doirasida amalga oshirilgan islohatlar, davlat boshqaruv shaklining mukammal bo'lishiga, demokratik prinsiplarga mos tushishiga ta'sir qiladi. Prezident, parlament, hukumat vakolatlaring taqsimlanishi, ular o'rtasidagi aloqalarning chuqurlashuvi boshqaruv shaklining mukammalashuviga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan paytdan to hozirgacha bo'lgan davrda prezident maqomoning o'zgarib borayotganligi, uning vakolatlari parlament va hukumatga o'tib borayotganligi, demokratlashtirishning chuqurlashib borayotganligi bildiradi.

Prezidentning bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lishi tajribasing bekor bo'lishi, keyinchalik Prezidentning ijro hokimiyati boshlig'i bo'lish tajribasining bekor bo'lishi davlat boshqaruvini demokratlashtirishning ishonchli ko'rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023. 5-8-50betlari.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: "O'zbekiston", 1992. 4-bet
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – T.: "Toshkent" 2022. 59-193-betlar.
4. U. Tojixonov, A. Saidov, X. Odilqoriyev. O'zbekiston Respublikasing Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: "Sharq", 2001. Darslik. – T.: 2001. 240-bet.
5. Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. Учебник. – М.: "Норма", 1998. – С. 122-123.
6. SH.A. Saydullayev Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – Toshkent: 2021. 79-80-betlar.
7. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. "Toshkent". 2018. 82-96-betlar.
8. <https://uz.m.wikipedia.org>
9. <https://civil.uz>